

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “KO‘K DENGIZ” HIKOYASIDA TIL VA MILLAT MASALASI

Noraliyeva Marjona Usmon qizi

noraliyevamarjona9@gmail.com

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17602258>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning “Ko‘k dengiz” hikoyasida yoritilgan til va millat tushunchalari va ular bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Shuningdek, adib hayoti u yashagan muhit va odamlarning uning asarlariga qanchalik ta’sir etganligiga urg‘u beriladi. Hikoyadagi o‘tgan asrda Markaziy Osiyoda ildiz otgan til g‘urur masalasi, shu bilan birga millatlarning o‘ziga xos urf-odat va an‘analari va o‘zligini saqlab qolish singari o‘rtaga tashlangan masalalar tahlil qilinadi

Kalit so‘zlar: milliy xarakter, “shafqatsiz realism”, romantik pafos, realistik tasvir, peyzaj mahorati, ruhiy olam, inson va tabiat munosabatlari

Shukur Xolmirzayev o‘tgan asrda eng ko‘zga ko‘ringan nasrimizning yorqin vakillaridan biri hisoblanadi. U o‘zining takrorlanmas, o‘tkir syujetli, teran fikrli, tafakkur qilishga undaydigan irod namunalari bilan xalqimizning ko‘nglidan chuqur joy egalladi.

Shukur Xolmirzayev ijodining dinamikasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, u bir nechta bosqichlardan iborat. Ya’ni o‘z ijodiy faoliyatini hikoya, ocherklar yozish bilan boshlagan adib ijodining dastlabki bosqichi mavzusi yoshlik va talabalik yillarining o‘ziga xos nozik hissiyotlari va jozibasi, shuningdek o‘zi tug‘ilib o‘sgan jannatmakon, tog‘lar bilan o‘ralgan Boysun diyorida yashovchi turfa tabiatli kishilar taqdiri, ular hayotidagi mashaqqatlar, ijtimoiy o‘zgarishlar badiiy talqin etilgan. Keyinchalik aynan shu qahramonlar adib ijodining keyingi davrida mukammalashib, har tomonlama yetuklashib, uning asarlarida realistik tasvirning ustuvor yo‘nalishga aylanishida tayanch bo‘ldi. Aynan shu insonlar uning asarlarining asosiy qahramonlariga aylandi. Endi yozuvchi murakkab hayotiy vaziyatlar, kishilarning muammo va iztiroblarga to‘la, ziddiyatlardan iborat ruhiy olamini ko‘rgan sari uning dastlabki asarlarida ustuvor bo‘lgan romantik pafos endi o‘z o‘rnini realizmga bo‘shatib berdi. Va aynan shu orqali adabiyotimizga yangi bir tur, “shafqatsiz realism”, unsurlari kirib kelishiga zamin yaratildi.

Shukur Xolmirzayev asarlarida o‘zbeklarga xos milliy xarakter, inson va tabiat munosabatlari teran badiiy talqin qilingan. U o‘zbek adabiyotida tuzum muammolarini ochib bergan, xalq dardini chuqur his qila olgan, jamiyat muammolarini asarlarida xolis ko‘z bilan olib chiqa olgan kam sonli jasoratli realist yozuvchilarimizdan biri edi.

Bunga yana bir dalil sifatida aynan uning birinchilardan bo‘lib o‘zbek xalqining eng yaqin tarixida yuz bergan “bosmachilik harakati” deb atab kelingan davrini o‘rganishi va shu mavzu asosida bir qancha tarixiy asarlar yaratganligini keltira olamiz. Shuningdek, Shukur Xolmirzayev asarlarini tahlil qilar ekanmiz, uning peyzaj mahoratini ta’kidlab o‘tmaslik imkonsiz. Yozuvchi ijodining o‘ziga xos jihatini ta’kidlashda M.Hamidovanning fikrlariga tayanamiz: “...adib hikoyalarida peyzajning eng muhim funksiyalariga: ya’ni: xronotopik, syujet-kompozitsiya, psixologik funksiyalar, muallif uchun zarur bo‘lgan rangni yaratish va

muayyan falsafiy g'oyalarni ifodalash funksiyasini kuzatish mumkin"[3,102]. U peyzaj san'atida shu qadar mahoratli ediki, kitobxonlar uning asarlarida nafaqat yurtimiz tabiatining xilma-xilligi va o'ziga xosligi, balki borliq sirini ham kashf qila oladilar. Yana bu aynan biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, yozuvchining bu mahorati shakllanishida u tug'ilib o'sgan yurt, uning go'zal tabiati, boy tili va madaniy merosi katta ta'sir ko'rsatgan bo'lsa ajab emas.

"Ko'k dengiz" hikoyasi Shukur Xolmirzayev ijodidagi mustaqillikning dastlabki yillarida yozilgan, istiqloq, til va millat kabi umumbashariy masalalarni ko'targan, o'quvchini chuqur o'yga toldiradigan va mushohada qilishga undaydigan asar hisoblanadi.

Asar bosh qahramoni oltoylik Umrzoq Ivan Ivanovich. Hikoyada dastlab u yerto'lada yolg'iz yashaydigan, hech kimi yo'q va g'irt ichkilikka ruju qo'ygan kishi sifatida ko'rsatilgan.

Biroq voqealar rivojida shuni ko'rishimiz mumkinki, u haqiqiy ziyoli inson bo'lgan. Bir vaqtlar u Oltoy muallimlar tayyorlov institutida xalq og'zaki ijodidan dars bergan, uning xotini va bir qizi bo'lib, ular birgalikda risoladagidek hayot kechirishgan. Oltmishinchi yillarda ruslashtirish siyosati Oltoy o'lkasida amalga oshiriladi va rus tili ommaviy hamma sohaga kirib boradi, maktablarda darslar rus tilida olib borilishni boshlaydi. Shunda o'z tiliga sodiq, millatparvar qahramonimiz sovet hokimiyatiga arznomalar yozadi. Ammo uning qilgan ishlari bekor ketib, arzimagan ish uchun o'n yilga "millatchi" degan ayblov bilan qamaladi.

Uning hayoti shu bilan alg'ov-dalg'ov bo'lib ketib, alamidan ichkilikka ruju qo'yadi.

Hattoki qamoq muddati tugagach, uyiga qaytib borganida, unga o'z uyida yashashga ruxsat berilmaydi. Tirik bo'la turib o'z oilasi bilan yasholmaydi. Bu paytda esa ba'zi bir milliy g'urur tuyg'usi, Vatan hissi nima ekanligini bilmaydigan kimsalar sovet hukumatini qo'llab-quvvatlab, mansabda yuqorilayotgan bir paytda, vatan tuyg'usi qalbini tark etmagan bu inson har qanday holatda ham o'z ishini davom ettirishga o'zida kuch topadi. U yaqin atrofda yashaydigan bolalarni yerto'laga chaqirib, o'zlarining unutilib ketayotgan milliy qadriyatlari, o'tmishi, tili, an'analari, urf-odatlarini haqida gapirib berib, ularga o'zligini anglashda ko'priq vazifasini o'taydi.

U bu yo'lda topishmoqlardan foydalanadi. Sababi topishmoqlar qadim qadimdan beri Oltoy xalq ijodining "kaliti" hisoblanib, ularda "yashirin tili" aks etgan ekan.

Asarning qamrovi juda keng bo'lib, unda bir qancha umumbashariy masalalar ko'tariladi. „Asar nafaqat Oltoy o'lkasiga, balki Chor Rossiyasi zug'umi ostida qiynalgan barcha xalqlarga birday taalluqli ekanligi bilan uning saviyasi naqadar yuqori ekanligi, jahon hikoychiligida o'z o'rniga ega bo'lgan hikoyaligi ko'rinadi. „Shukur Xolmirzayev "Ko'k dengiz" asariga faqat oltoy, o'zbek xalqini emas, Sovet Ittifoqi deb atalgan sho'rolar mamlakatidagi ko'pdan-ko'p xalqlarning XX asr nihoyasidagi milliy dard alamlarini singdira oldi"[3,100]. Ruslashtirish siyosati sababli ayni shu xalqlarning tiliga putur yetdi, rivojlanishdan to'xtadi, xalqaro hamjamiyatda o'z o'rnini topish imkoniyatlari kamaydi. Va bu paytda Umrzoqqa o'xshagan kam sonli fidoyi insonlarga buning qanchalik fojiali ekanligini anglab yetishdi, xolos. Quyidagi satrlar bilan yozuvchi agar ko'zlar vaqtida ochilmasa, butun bir xalqning o'zligi, milliy qadriyatlari, tili yo'qolishi oqibatida, xalq ham butunlay yo'qolishiga ishora qilgan. " Ay! - deb qo'l siltadi u. Yok. Biz shaman, kam... Altay. Turk... No bizim kijilar az... Vsego shestdesyat tnsyacha ostalis! O'- o'! I to oni o'rus tilinda so'zlayat... Biz yok olamiz. Mn vgmirayushiy narod... Men bu tomonlarini bilmas edim. Ko'nglim buzilib:

Yo'q, - dedim. Siz o'lmaysiz! Bizning yurt sizning-da yurtingiz!"[2,102]

Shuningdek, bu hikoyada barcha turkiy xalqlarga xos bo'lgan bir qancha xususiyatlarga urg'u beriladi. Misol uchun, mahalla raisining topishmoqni topolmagan paytda "shahar berdim" degan so'zlaridan, Umrzoq o'z xalqiga xos nimanidir eshitganidan yosh bolalarcha xursand bo'ladi. Aynan shu personaj asosida yozuvchi barcha turkiy xalqlarni birodarlardek ko'radigan, ularning muammosini o'zirniki deb biladigan naqadar yuqori darajadagi insoniylikka ega bo'lgan shaxsni ochib bergan. Aynan bu jihat asar oxirida yanada yaxshiroq anglashiladi. Sababi endi kitobxon yaxshi biladiki, bu inson "Drujba" mahallasiga uy, ichkilik yoxud yaxshi turmush kechirish uchun emas, o'zining xalqi bilan ildizi bir bo'lgan boshqa bir turkiy xalq ahvolini o'z ko'zi bilan ko'rish ishtiyoqida, qadimdan mavjud bo'lgan uchta mahobatli ko'lining birini ko'rish ilinjida kelganligi ma'lum bo'ladi. Achinarlisi shuki, uning umidlari sarobga aylanadi: endi Ko'k ko'l o'rnida "Qora ko'l" bor edi... Shu paytda u shunchalik dahshatga tushadiki, o'zini yig'idan to'xtata olmaydi. Hatto uni olib kelgan shu yerda tug'ilib o'sgan Yo'lchiboy ham bu holdan ham hayratda, ham uyatda edi. Axir u hech ham u kabi qayg'urmagan edi-ku! Shu bilan endi u "Ko'k dengiz"ni izlab yo'lga chiqadi...

Shukur Xolmirzayev hikoyani butkul nihoyalamaydi. Sababi Umrzoqqa o'xshagan el yurt dardida yongan insonlarni so'ndirib bo'lmaydi, ular hech qachon o'z yo'lidan voz kechmaydilar.

Shukur Xolmirzayev hikoyalari ustida tadqiqot olib borgan adabiyotshunos olim Sh. Doniyorova bu haqida fikr yuritib, timsollar haqida quyidagilarni yozadi. "Umrzoq intilgan va ardoqlagan "Ko'k ko'l" aslida Orol dengizi bo'lib, uning fojeasi nafaqat Orolbo'yi xalqlari, balki oltoyliklarning ham fojeasidir. Ko'k dengiz - Umrzoq nazarida, mustaqillik mavjud bo'lgan o'lka, baliqlar esa mustaqillikni orzu qilgan o'lkaning odamlari"[1,14].

Xulosa qilganda, Shukur Xolmirzayev o'zbek adabiyotida o'z yo'lini topa olgan, o'z uslubini shakllantira olgan yorqin namoyondalardan biri hisoblanadi. Bugun kitobxon uning asarlarini o'qiganda bemalol boshqalaridan tili ravonligi, xalqchilligi, teran fikrlari bilan farqlay oladi. Uning „Ko'k dengiz“ hikoyasi mavzusining qamrovi jihatdan yuqori ahamiyatga ega.

Maqolada aynan undagi til va millat masalasiga urg'u berilgan. Davlatning kelajagida, uning gullab yashnab, jahonda o'zining mustahkam o'ringa ega bo'lishida millatning birlashishi va ona tilida muloqot qilinishiga e'tibor berilishi va asosiy til sifatida hurmat qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Doniyorova Sh. Shukur Xolmirzayev hikoyalarining badiiy uslubiy o'ziga xosligi: Filol. fanlari nomzodi...diss. avtoref. – Toshkent,2000
2. Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar: Hikoyalar. – T.: Sharq, 2020
3. Hamidova M. "Shukur Xolmirzayev nasrida inson va tabiat tasviri".Maqola. " Yangi O'zbekistonda Ozbek Adabiy Tilining rivojlanish tendensiyalari: muammolar, yechimlar, tavsiyalar" mavzusida Respublika ilmiy amaliy anjumani, 2024. -102 b.
4. Xolmirzayev Sh. O'zbek xarakteri: hikoyalar. – T.: Ziyo nashr, 2023. -240 b.